

Po‘latova Husnidaxon Odiljon qizi

Nizomiy nomidagi O‘zMPU Tarix fakulteti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada aslar davomida Sharqning ilmu ma’rifat va madaniyat markazlaridan biri sifatida jahonga dong’i ketgan ilmiy markazi bo‘lmish Ko’hna Buxoro, uning tarixi, madaniyati, go’zal nomlari haqida ma’lumotlar keltiriladi. Shuningdek, Buxoroning Buyuk Ipak yo‘lidagi muhim mavqei, tarixiy me’moriy obidalari, mashhur allomalari haqida ma’lumot berilgan. Maqolada Ko’hna shaharning milliy qadriyatlari, ma’naviy merosi va bugungi kundagi tarixiy ahamiyati ilmiy asosda tahlil qilingan. Buxoroning jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasi ham alohida yoritib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *Buxoro, Buyuk Ipak yo‘li, madaniy meros, tarixiy taraqqiyot, madrasalar, ilm-ma’rifat, ma’naviy qadriyatlar, tarixiy obidalar, Numijkat va Faxira, Rudi Mosaf, Madinat us-sufriya, Madinat ut-tujjor, Bumiskat shu sozlarni.ruscha va inglizchaisni*

Annotation: *This article provides information about Ancient Bukhara, which for centuries was one of the centers of science, enlightenment, and culture in the East and gained worldwide recognition as a major center of learning. The article discusses its history, culture, and renowned names. In addition, it highlights Bukhara’s significant role on the Great Silk Road, its historical architectural monuments, madrasahs, and the activities of its famous scholars. The national values, spiritual heritage, and contemporary historical significance of this ancient city are analyzed on a scientific basis. The article also separately examines Bukhara’s contribution to world civilization.*

Keywords: *Bukhara, the Great Silk Road, cultural heritage, historical development, madrasahs, science and enlightenment, spiritual values, historical monuments, Numijkat, Fakhira, Rudi Mosaf, Madinat as-Sufriya, Madinat at-Tujjar, Bumiskat.*

Аннотация: *В данной статье приводятся сведения о древней Бухаре, которая на протяжении веков была одним из центров науки, просвещения и культуры Востока и приобрела мировую известность как крупный научный центр, а также рассматриваются её история, культура и прекрасные названия. Кроме того, освещены важное положение Бухары на Великом шелковом пути, её исторические архитектурные памятники, медресе и деятельность известных учёных. В статье на научной основе проанализированы национальные ценности, духовное наследие и историческое значение древнего города в современности. Также отдельно раскрыт вклад Бухары в мировую цивилизацию.*

Ключевые слова: *Бухара, Великий шёлковый путь, культурное наследие, историческое развитие, медресе, наука и просвещение, духовные ценности, исторические памятники, Нумиджкат, Фахира, Руди Мосаф, Мадинат ас-Суфрия, Мадинат ат-Туджжар, Бумискат.*

Buxoro jahonning eng qadimiy va tarixiy-me'moriy obidalarga boy go'zal shaharlaridan biri bo'lib, u azaldan islom olamida yuksak nufuzga ega bo'lgan. Buxoro nomi dastlab IX asrda tarixchi Narshaxiy tomonidan zikr etilgan. Ko'plab tarixchilar, tilshunoslar fikricha, Buxoro so'zi qadimgi hind – sanskrit tilidagi “vixara” so'zidan kelib chiqqan bo'lib, “qal'a” ma'nosini anglatadi. Qadimda shahar Numijkat va Faxira, deb ham atalgan. Bu shaharning har bir go'shasida – boy tarixga ega minoralari, osori-atiqalari, muqaddas qadamjolari va obidalarida olis o'tmishning aks-sadosi, qoldirgan izi bor. Shuningdek, u Sharqu G'arbda “ochiq osmon ostidagi muzey, shavkatli tarixning jilvakor ko'zgusi” nomini olgan. VIII asrda mintaqaga islom dini kirib kelishi ortidan Buxoro asta-sekin eng muhim diniy markazga aylanib, islom olamida sharif sanaladigan to'rtta shahardan biriga aylangan. Buxoroi sharifdan butun jahon tan olgan buyuk olimlar, mutafakkir va donishmandlar etishib chiqqan. Buxoroi zaminimizdan Imom Buxoriy, Ibn Sino, Narshaxiy, Naqshbandiy, G'ijduvoni kabi buyuk allomalar chiqqan. Ular yozgan asarlar jahon ma'naviy mulkining durdonalariga aylandi. Ayniqsa, Imom Buxoriyning “Sahihi Buxoriy” to'plami va boshqa asarlari, Abu Ali ibn Sinoning “Tib qonuni” kitobi islom olami va jahon ilmi javohirlari, deb e'tirof etiladi. “Samarqand tomonida bir katta daryo borki, uni “Rudi Mosaf” – “Mosaf daryosi” deb ataydilar. Bu daryoga ko'p suv yig'ilgan, u bir talay yerlarni yuvib-o'pirib, ko'p loyqalarni yuvib kelgan va natijada bu botqoqliklar to'lib qolgan. Suv ko'p oqib kelaberdi, loyqalarni to Bitik va Farobgacha surib keltiraberdi. So'ng suv toshib kelishi to'xtadi, Buxoro o'rtnashgan joy asta-sekin to'lib tekis yo'lga aylandi va shunday qilib u katta daryo Sug'd va bu loyqalar bilan to'lgan mavze Buxoro bo'lib qoldi”³- deydi A. Muhammadjonov. Buxoro nomi tilga olinganda inson ko'z o'ngida qadimiy tarix, boy ma'naviyat, buyuk allomalar va ilm-fan markazi gavdalanadi. Ushbu ko'hna shahar asrlar davomida Sharq sivilizatsiyasining muhim markazlaridan biri bo'lib kelgan. Shuningdek, Buxoro Buyuk Ipal yo'li chorrahasida joylashgani sababli Sharq va G'arb mamlakatlarini o'zaro bog'lovchi yirik savdo hamda madaniy markaz vazifasini bajargan. 1970-yilda Yahyo G'ulomov rahbarligida Buxoro shahrida ko'p yillarga mo'ljallangan arxeologik qazishma ishlari boshlandi. Ammo tadqiqot ishlari nihoyasiga yetmasdan Buxoro jamoatchiligi, ayniqsa fidoiy ziyolilari o'rtasida zarur ashyoviy dalillar yo'qligiga qaramay “Buxoroning yoshi 3000 yildan kam emas” degan qat'iy fikr keng tarqaldi, aslida bu ma'lumot Muhammad Narshaxiyga tegishli bo'lib, o'zining “Buxoro tarixi” nomli kitobida ana shu raqamni aytib o'tgan va shaharning qurilishini qadimgi Eronning afsonaviy shahzodasi Siyovush nomi bilan bog'lagan: Siyovush ibn Kaykovus o'z otasidan qochib Jayhun daryosidan o'tib Afrosiyobning oldiga keladi. Afrosiyob uni yaxshi kutib oldi va o'z qizini unga nikohlab berdi, aytishlaricha barcha mol mulkini unga topshirgan. Siyovush o'ziga berilgan viloyatni vaqtincha berib qo'yilgan joy ekanligi sababli bu yerda o'zidan bir yodgorlik qoldirishni istadi. Shunday qilib u Buxoro hisorini qurdi va ko'proq vaqt o'sha yerda turdi. Kimlardir u va Afrosiyob o'rtasida yomon gap chiqarib shu hisorning sharqiy darvozasidan kiraverishdagi “Darvozai go'riyon” deb atalgan

³ Muhammadjonov A. “Qadimgi Buxoro” Toshkent 1991. 40-bet

20-Iyul, 2026-yil

somonfurushlar darvozasining ichkarisiga dafn qilishni buyurdi. O‘rta asr mualliflari asarlarida Buxoroning Numijkat, Bumiskat, Madinat us-sufriya, Madinat-ut tujjor, Foxira kabi qator nomlari keltiriladi. Muhammad Narshaxiyning yozishicha, o‘sha vaqtlarda Xuroson shaharlarining nomlari ham bunchalik ko‘p bo‘lmagan. Ho‘sh, Buxoro shahrining bu qadimiy nomlari qanday ma‘nolarni anglatadi? Buxoro nomlari etimologiyasiga qaraydigan bo‘lsak, ushbu nomlar shaharni bino qilgan tub aholi hamda chetdan kelgan ajnabiylar tomonidan berilgan ikki turdagi nomlardir. Jumladan, “Madinat us-sufriya”, “Madinat ut-tujjor” va “Foxira” nomlari arablar tomonidan berilgan bo‘lib, ulardan birinchisi “Mis Shahar”, ikkinchisi “Savdogarlar shahri”, uchinchisi esa “Faxrli Shahar” degan ma‘nolarni anglatadi. Buxoro shahri qal‘a devorlari mudofaa jihatdan nihoyatda mustahkam qilib qurilganligi sababli, u "misdan qo‘yilgan qo‘rg‘on" yoki "misdan yasalgan istehkomga ramziy qiyos qilinib, unga “Mis Shahar” ma‘nosini anglatuvchi “Madinat us-sufriya” atamasi berilgan. Buxoroning yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarini Xitoy va Hindiston bilan bog‘lagan mashhur "Buyuk ipak yo‘li" ustida joylashganligi, aholisini ko‘pchiligi savdogarlardan bo‘lganligi sababli bu shahar “Madinat at-tujjor” ya‘ni “Savdogarlar shahri” degan nom bilan shuhrat topgan. “Foxira” atamasi esa, Muhammad Narshaxiyning tavsiloti bo‘yicha, unga islom olamining barqarorligi yo‘lidagi shahidlar sharofatiga nisbat berilgan atamadir. Numijkat, Bumiskat va Buxoro shaharga mahalliy aholi tomonidan berilgan nomlar hisoblanadi. Bu nomlarning birinchisi aslida Navmichkat bo‘lib, u uchta fors-tojikcha “nav” - yangi, “mich” - qala, istehkom va “kat” - qishloq kabi so‘zlar birikmasidan tashkil topgan. U “Yangi qal‘a”, “Yangi qo‘rg‘on” va “Yangi istehkomli qishloq” ma‘nolarini anglatgan. Muhammad Narshaxiy shaharning turli hil atamalarini tilga olar ekan "Buxoro degan nom u nomlarning hammasidan ham mashhurroqdir" deb yozadi. Chunki bu nom bilan ham o‘lka, ham unda qad ko‘targan shahar shuhrat topgan.

Buxoro etimologiyasini akademik V. V. Bartold sanskritcha “vixara”, ya‘ni “ibodatxona” so‘zi bilan bog‘laydi. Bu atama sug‘diycha bo‘lib “Bug‘oro”, ya‘ni “tangri jamoli” degan ma‘noni anglatadi. Bunday talqin shubhasiz, Narshaxiyning Buxoro vohasining qadimgi tabiati to‘g‘risidagi tafsilotiga hamohang bo‘lib, arxeologik qazishmalar vaqtida kavlab ochilgan osori atiqalarda ham o‘z aksini topgan. Buxoro shahri qadimda Zarafshonning quyi tarmog‘i Zarirud bo‘yida uchta qal‘a shaklida paydo bo‘lgan. Bu qal‘alardan eng qadimgisi Farobdiz, ikkinchisi Buxoro va uchinchisi Navmichkat nomlari bilan yuritilgan. Keyinchalik bu uch qal‘a bir-biri bilan qo‘shilib ketgan. Aholining soni ko‘paygan sari shahar ham kengayib brogan va shaharning keyinchalik obod bo‘lgan qismining xavfsizligini ta‘minlash maqsadida IX asrda Buxoro qadimgi uchta qismini ham o‘z ichiga olgan yagona tashqi devor halqasi bilan o‘rab olingan. Asrlar o‘tishi bilan shahar hududi yanada kengaygan. Uning atrofida, shahar devori tashqarisida yangi mahalla va guzarlar qad ko‘targan. Buxoro shahrida savdo sotiqlik, hunarmandchilik ayniqsa, zandanicha matolari zo‘r taraqqiy topgan edi. Muhammad Narshaxiy o‘zining “Buxoro tarixi” asarida “Buxoroda — hisor bilan shahriston o‘rtasida, masjidi jome yaqinida bir korxona bor edi; unda paloslar, darpardalar, yazdiy kiyimliklar, yostiqlik jildlari, fundukiy joynamozlar va ust

20-Iyul, 2026-yil

kiyimlarni xalifa uchun to‘qir edilar; bitta darpardaga (butun) Buxoro xiroji sarf bo‘lardi. Bag‘doddan har yili alohida bir omil kelib, Buxoro xirojining evaziga shu kiyimliklardan olib ketar edi. Bir vaqt kelib bu korxona bekor qoldi va bu hunar bilan shug‘ullanuvchi kishilar tarqalib ketdilar”⁴ - deydi. Aytishicha Buxoro shahrida shunday hunarmandlar bor ediki, viloyatlardan savdogarlar kelib, zandaniychini olib ketganlar va bu kiyimlarni Shom va Misr, Rum shaharlariga olib ketar edi. Xurosonning hech bir shahrida bunday matoni to‘qiy olishmas edilar. Hatto bu hunar egalarining ba‘zilari Xurosonga borib bu ish uchun kerakli asboblarni tayyorlab shu kiyimlarni to‘qidilar, lekin Buxoronikiday sifatli bolmadi. O‘sha vaqtlarda bu matolarga, bu kiyimlarga ega bo‘lmagan birorta podshoh, amir rais yoki boshqa mansab egasi yo‘q edi. Uning qizil, oq va yashil ranglisi bo‘lar edi. Bugun hamma viloyatlarda u kiyimlardan ko‘ra zandanicha mashhurroq. Saudiya Arabistononing mashhur “Swift News” elektron nashrida Buxoro shahrining boy tarixiy merosiga bag‘ishlangan maqola e‘lon qilindi. Unda ta’kidlanishicha, Buxoro o‘rta asrlarda musulmon sharqida juda mashhur bo‘lgan. “Buxoro Buyuk ipak yo‘lida joylashgan qadimiy shahar bo‘lib, qadimdan Markaziy Osiyoning eng yirik ilm va madaniyat markazlaridan biri sifatida e’tirof etib kelinadi. Ba’zi manbalarga ko‘ra, Buxoro nomi so‘g‘d tilidan olingan bo‘lib, “baxtli joy” deb tarjima qilingan”⁵, - deyiladi maqolada. Chindan ham mamlakatimizda qad rostlab turgan noyob arxitektura durdonalari, tarixiy obidalari bilan dunyoning turli nuqtalaridan kelgan sayyohlar va ziyoratchilarni o‘ziga jalb qilib kelayotgan Buxoroi sharifimiz bilan faxrlansak arziydi. Buxoro chinakam noyob arxitektura olami, turli uslublar, harakatlar majmuyi. Asrlarga qaramay me’moriy-tarixiy obidalar avloddan-avlodga o‘tib, bizga qadar asl holicha yetib kelgan. Ipak yo‘lining markazida joylashgan Buxoro qadimda Sharq va G‘arbning ko‘plab mamlakatlarini bir-biriga bog‘lagan chorraha bo‘lib ham xizmat qilgan. Vatanimiz shunday boy tarixga egaki, bu mo‘tabar zaminda ulug‘ ustodlar, fiqhshunos olimlar-u, buyuk olimlar o‘tgan. Imom al-Buxoriy, Ismoil Somoniy, Xoja Abdulholiq G‘ijduvoniy, , Hazrat Bahouddin Naqshbandiy kabi olimlarning barchasi xalqimiz ma’naviyati va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo‘shgan. Ularning ilmiy va ma’rifiy merosi nafaqat yurtimizda, balki butun dunyoda yuksak qadrlanadi. Buxoro shahri qadimdan ilm-fan, ma’rifat va madaniyat markazi sifatida tanilgan bo‘lib, tarixiy manbalarda Buxoro “Buxoroi Sharif” nomi bilan tilga olinib, musulmon olamining eng yirik ilm maskanlaridan biri sifatida e’tirof etilgan. Bu yerda yuzlab madrasalar, kutubxonalar va ilmiy markazlar faoliyat yuritgan bo‘lib, ularda diniy va dunyoviy ilmlar rivoj topgan. Ko‘hna Buxoroning bugungi kungacha saqlanib qolgan tarixiy-me’moriy obidalari xalqimizning boy madaniy merosidan dalolat beradi. Ark qal’asi, Poi Kalon majmuasi, Minorai Kalon, Labi Hovuz majmuasi kabi nodir yodgorliklar nafaqat O‘zbekistonning, balki jahon sivilizatsiyasining bebaho durdonalari hisoblanadi. Bugungi kunda ham Buxoro o‘zining tarixiy qiyofasi, betakror me’morchiligi va boy ma’naviy merosi bilan dunyoning turli mamlakatlaridan kelayotgan sayyohlarni o‘ziga jalb etmoqda. Shu bois Ko‘hna Buxoro nafaqat

⁴ An-Narshaxiy. Rasulev A tarjimasi. “Buxoro tarixi”. www.ziyouz.com kutubxonasi. 13-bet.

⁵ dunyo.info “Swift News” jurnali 2024

20-Iyul, 2026-yil

o‘tmishimizning yorqin guvohi, balki kelajak avlodlar uchun asrab-avaylanishi lozim bo‘lgan bebaho tarixiy xazinadir. “Narshaxiyning yozishlaricha, Buxoro Abu Hafs Kabir tufayli “Qubbatul islom” nomini olgan. U kishining o‘g‘li Abu Abdulloh (Abu Hafs Sag‘ir deb ham ataganlar) ilmlari shu darajaga yetganki, hojilar karvoni Ka‘badan qaytayotganda, ularning ulamolari Xoja Imom Abu Hafs yonlariga borib, u kishidan muammo masalalarga javob so‘rar ekan. Shunda Abu Hafs: “O‘zing-ku Iroqdan kelyapsan, nima uchun Iroq olimlaridan so‘ramading?” deganda, u olim: “Bu masalada Iroq olimlari bilan munozara qildim, ular javob bera olmadilar va menga Buxoroga borganda bu muammoni Xoja Imom Abu Hafs yoki u kishining farzandlaridan so‘ra”⁶ – deydi. Narshaxiyning ushbu ma‘lumotlariga qo‘shimcha sifatida aytish mumkinki, Abu Hafs Kabir faqat din olimi emas, balki o‘z davrida xalqning ijtimoiy va huquqiy muammolarini hal qiluvchi yirik arbob ham bo‘lgan. U kishi yaratgan ilmiy zamin sababli, keyingi asrlarda Buxoroda dunyoviy va diniy ilmlar uyg‘unlikda rivojlandi. Buni Ibn Sino kabi allomalarning aynan shu muhitda ta‘lim olgani ham yaqqol isbotlaydi. Ko‘hna va boqiy Buxoro – ilm-fan, islom madaniyati va ma‘naviyatining azaliy beshigidir bu muqaddas zaminning qadriyatlari asrlar davomida shakllangan bo‘lib, uning asosiy negizini albatta ilm-ma‘rifat va diniy qadriyatlar, me‘moriy va tarixiy meros, mehmondo‘stlik va bag‘rikenglik qadriyatlari egallaydi. Buxoro Islom olamida haqli ravishda “Qubbat ul-islom” (Islom gumbazi) deb e‘tirof etilgan. Bu yerda hadis ilmining sultoni Imom Buxoriy, Bahouddin Naqshband kabi buyuk allomalar va tasavvuf namoyondalari yetishib chiqqan. Diling Allohda, qo‘ling mehnatda bo‘lsin” shiori Buxoro xalqining mehnatsevarlik, halollik, kamtarlik va ezgulik kabi axloqiy fazilatlarining asosidir. Shaharning tarixiy markazi YUNESKOning Butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan. Minorai Kalon, Ark qal‘asi va qadimiy madrasalar ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan bunyodkorlik an‘analaridan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytganda, Buxoro asrlar davomida shakllangan boy tarixiy tajribasi, ilm-fan va madaniyat sohasidagi yutuqlari bilan insoniyat sivilizatsiyasining ajralmas qismiga aylandi. Savdo yo‘llari chorrahasida joylashgan ushbu qadimiy shahar turli xalqlar va madaniyatlar o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlashga xizmat qilgan bo‘lsa, uning ilm maskanlari ma‘rifat va tafakkur rivojiga ulkan hissa qo‘shdi. Bugungi kunda Buxoro o‘zining tarixiy qiyofasini saqlab qolgan holda zamonaviy taraqqiyot yo‘lidan dadil odimlamoqda. Shaharning boy madaniy merosi, noyob me‘moriy obidalari va ma‘naviy qadriyatlari mamlakatimizning xalqaro maydondagi nufuzini oshirishga xizmat qilmoqda. Shunday ekan, Ko‘hna Buxoro nafaqat o‘tmishning yorqin sahifalarini o‘zida mujassam etgan tarixiy maskan, balki bugungi va ertangi taraqqiyot uchun ilhom manbai hamdir. Uning bebaho merosi xalqimizning ma‘naviy boyligi sifatida doimo e‘zozlanib, chuqur o‘rganilishi va kelajak avlodlarga yetkazilishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Muhammadjonov A. “Qadimgi Buxoro” Toshkent 1991. 40-bet

⁶ Sadriddin Salim Buxoriy “Tabarruk ziyoratgohlar” Toshkent. 1993. 2-bet

“O‘ZBEKISTONDA UCHINCHI RENESSANS VA INNOVATSION JARAYONLAR JURNALI”

20-Iyul, 2026-yil

2. An-Narshaxiy. Rasulev A.tarjimasi. “Buxoro tarixi”. www.ziyouz.com
kutubxonasi,13-bet
3. Dunyo.info “Swift News” jurnali 2024
4. Sadriddin Salim Buxoriy “Tabarruk ziyoratgohlar” Toshkent. 1993. 2-bet